

## HOMILADOR AYOLLAR KIYIMINING MODEL KONSTRUKSIYASIDA TRANSFORMASIYA VA ROSIONAL YECHIMLARNI ISHLAB CHIQISH

Raxmonova Malohat Mirkomilovna

Fargona politehnika instituti “YST” kafedra o‘qituvchisi

E-mail: [raxmonova.malohat@mail.ru](mailto:raxmonova.malohat@mail.ru)

**Annotatsiya:** Bugungi kunda xomilador ayollarga kiyimlarni loyixalash muxim va dolzarb masalalardan biridir, mazkur toifadagi ayollar qaddi qomatida nisbatan qisqa muddat mobaynida jiddiy va fiziologik va antropometrik o‘zgarishlar kuzatilinadi, shu sababli xomilador ayollar kiyimiga doimiy talab kuchli bulgan. Ushbu maqolada aynan homilador ayollarning kiyimi modeli konstruksiyasi va dizayniga rasional konstruktiv yechimlar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** konstruktsiya, rotsional, bazis tori, ergonomik, estetik, texnologiya transformatsiya, kombinatsiya.

**Kirish.** Kiyim tranformasiyasini ishlab chiqishga bag‘ishlangan ba’zi ishlarda kiyim ko‘rinishini o‘zgartirish yoki o‘zining xususiyati va funksiyasini jiddiy ravishda o‘zgartirish imkonini beruvchi asosiy prinsiplar va transformasiya uslublari aniqlangan; alohida transformasiyalanayotgan kiyim predmetlarini va elementlarini ishlab chiqishda qo‘llaniluvchi morfologik transformasiya imkoniyatlari (struktura yoki material shakli transformasiyalari) ko‘rib chiqilgan; standartizasiya darajasiga, hamda modelli konstruksiyalarda shakl ko‘rinishini o‘zgartirish nuqtai nazaridan har xil detal va uzellarni unifikasiyalashga qo‘yilgan talablar aniqlangan; modulli yondashuv asosida safarbar qilinayotgan assortimentlarni kompleksli loyihalash metodikasi ishlab chiqilgan [1-4].

**Asosiy qism.** Kiyim transformasiyasini prinsplarini konstruktiv amalga oshirish imkoniyatlarini nomoyon qilish uchun safarbar qilinayotgan kiyim struktura elementlarining o‘zaro xarakteri va ayollarning xomiladorlik davridagi qomati ko‘rib chiqiladi. Safarbarlik tizimi struktura elementlari sifatida kiyimning transformasiyalanayotgan detallari nomoyon bo‘ladi, ularni birlashtirishda buyumning xajmiy shakli yaratiladi [5-9]. Xomiladorlik davridagi “inson-kiyim” tizim elementlarining to‘la o‘zaro ta’sir etishida transformasiyaning eng ko‘p

samalarali uslublari nomoyon bo‘ladi: alohida struktura elementlarini paralel siljитish yo‘li bilan konstruksiyani tranformasiyalash, elementni aylantirish yo‘li orqali konstruksiyani tranformasiyalash, transformasiyaning kombinasiyalangan turi.

Xomiladorlik davriga mo‘ljallangan transformasiya uslubini klassifikasiysi:

Klassifikasiya to‘rt darajali tizim ko‘rinishida taqdim etilgan:

1.-daraja-transformasiyani amalga oshirish uslubi;


2-daraja- xajmni bir qiyomga keltirish bosqichi;

3-daraja xajmni bir qiyomga keltirish uslubi;

4-daraja- transformasiyalanayotgan elementlarni birlashtirish uslubi.

Klassifikasiyaning birinchi darajasida transformasiyaning quyidagi uslublarini ajratib olish mumkin: struktura elementini paralel ko‘chirish; elementni aylantirish; element keskinligini o‘zgartirish; element bog‘liklari keskinligini o‘zgartirish, kombinasiyalashgan transformasiya. Konstruksiyaning stukturali elementi keskinligini o‘zgartirish deb buyumdan foydalanish jarayonida egiluvchan materiallardan foydalanish hisobiga uning geometriyasini o‘zgartirish taxmin qilinadi. Bog‘lanishlar keskinligini o‘zgartirish deb aytilganda, birlashgan joylarda konstruksiyani surish (chokdag, relyeflardagi yirmochlar, yarimtepalar kattaligini o‘zgartirish)tushiniladi [10-14]. To‘g‘ri yoki trapesiya ko‘rinishidagi buyumda ixtiyoriy taxlamalar va drapirovkalar (bir qiyomga keltirilmaydigan xajm) shakllanadi. Bir qiyomga keltirilayotgan konstruksiyada buyum xajmining o‘zgarishi rezinkalar, tasmachalar, bel bog‘lar, shnurlar yordamida ayolning o‘zi tomonidan amalga oshiriladi. Xajmni o‘z o‘zini rostlashi ba’zi egiluvchan gazlamalarda to‘la to‘kis yoki qisman kuzatiladi.

# Research Science and Innovation House



**1-rasm.**


Uchinchi darajada xajmni bir qiyomga keltirish uslubi konkretlashgan bo‘ladi. To‘rtinchi daraja transformasiyalanayotgan elementlarni birlashtirish uslublarini tasniflaydi.

Ushbu klassifikasiyadan foydalanishni oddiylashtirish va konstruksiya transformasiyasini amalga oshiruvchi konstruktiv qarorlar qidiruvini tizimlashtirish imkonini beradi. Rasional konstruktiv qarorlarni ishlab chiqish berilgan vazifadagi kiyim loyihalasini takomillashtirish eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Transformasiya darajalarini ko‘rib chiqqan holda homilador ayollar kiyimi dizayniga xos bo‘lgan rasional konstruktiv yechimlar ishlanib, turli xil modellarda qo‘llash imkonini berdi.

Rasionallik deganda homiladorlikning barcha muddatlarida kiyim o‘lchovlari va shakli o‘zgarishini(transformasiyasini) va tipaviy qomat uchun bazali konstruksiya asosida ana’naviy usul orqali konstruktiv modellashni ta’minlovchi konstruktiv qarorlar tushiniladi.

Rasional konstruksiyani ishlab chiqish uchun xomilador ayollar kiyimining mavjud konstruktiv qarorlarini tizimlashtirish o'tkazildi.



**2-rasm.**

Klassifikasiyaning ikkinchi darajasidagi rasional konstruktiv qaror kiyimdagи ort bo'lak, yon bo'lak, old bo'lakning qanday joylashganligini tasniflaydi. Detalning yuqori sathida, bel sathida, bo'ksa sathida joylashuvi bo'yicha konstruktiv rasional qaror ajratiladi (ilova, 1,2-sxemalar).

Keyingi darajada rasional konstruktiv qaror konkretlashtiriladi. Ko'krak osti kesilgan joyida yoki old bo'lak relyefi sathida loyihalashtirilayotgan turli taxlamalar, yig'malar, drapirovkalar eng ommaviy rasional konstruktiv qarorga kiradi. Bunday konstruktiv rasional qarorlar yelkali kiyimlar( bluzkalar, jaketlar, ko'ylaklar, sarafanlar) uchun xarakterlidir. Belli (shimlar, yubkalar) kiymlarda gazlamalarning egiluvchanlik xususiyatiga yoki konstruktiv elementlar birlashtirilayotgan joylarda konstruksiyani siljitimish ko'zda tutilishiga asoslangan rasional konstruktiv qaror tez tez uchraydi. Belli kiymlarda taxlamalar va



drapirovkalar miqdoriy ko‘p bo‘lsa, qomat ko‘rinishida nopravilishda nomoyon bo‘ladi, shu bois ulardan foydalanish cheklangan. Ishlab chiqilgan klassifikasiya xomiladorlik davrida kiyish uchun mo‘ljallangan kiyimning turli modelli konstruksiyasini avtomatik tarzda loyihalash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** Xulosa homiladorlik davridagi ayol organizmidagi davrlar bo‘yicha fiziologik o‘zgarishlar o‘rganildi. Rasional konstruktiv yechimlar, transformatsiya usullari ishlab chiqildi asosiy model va taklif modellar konstruksiyaga eskit chizmalariga kiritilib, toplam tikildi. Homilador ayollar uchun xar taraflama tugri keladigan kiyimni ommaviy ishlab chiqarishga tadbiq qilish yaratildi

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Малухина И.В., Коблякова Е.Б. «Разработка методов эргономического проектирование мобильной формы и конструкции социально ориентированной одежды для женщин ожидающих ребенкака». 2001г 40-53 стр.
2. Бескоровайная Г.П., Коблякова Е.Б. «Конструирование женского пальто на фигуры различного телосложения ». 1992г., 60-75 стр.
3. Коблякова Е.Б. «Конструирование одежды с элементами САПР». М. Легромиздат 1998г., 238-247 стр.
4. Туркова И.А., Коблякова Е.Б. «Исследование закономерностей измерения основных конструктивных параметров одежды в зависимости от признаков телосложения». 1990г., 80-92 стр.
5. С.Г.Стебелянская «Моделирование и конструирование одежды для беременных женщин». 2009г., 10-20,33- стр.
6. Камилова Х.Х. Вахидова У.А. «Динамика изменения женской фигуры в период беременности». Наука, образование. Техника., №2, 2001г. ОШ.
7. Гриншпан И.Я. «Конструирование мужской верхней одежды по индивидуальным заказам населения». М. Легпищпром 1982г., 46-49, 50-56, стр.
8. Baxtiyorovna, N. B. (2022). Development of Structures of Double Patterned Weaves With Elements of Press Loops With A Geometric Pattern. Eurasian Research Bulletin, 14, 175-181.
9. Каримов, Н. М., Абдуллаев, Б. К., Махмудова, Г., & Саримсаков, О. Ш. (2021). Пневматическая транспортировка хлопка-сырца на хлопковозаводах. In Инновационные Подходы В Современной Науке (pp. 61-70).



Research Science and  
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN  
UZBEKISTAN” JURNALI**

**VOLUME 1, ISSUE 9, 2023. DECEMBER**

**ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023**

**ISSN 2992-8869**



Research Science and  
Innovation House

10. Сидиков, А. Х., Махмудова, Г., Каримов, А. И., & Саримсаков, О. Ш. (2021). Изучение движения частиц хлопка и тяжёлых примесей в рабочей камере пневматического очистителя. Universum: технические науки, (2-2 (83)), 51-56.
11. Odiljonovich, T. Q. (2021). About automation of loading and unloading of cotton raw materials at cotton factory stations. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2068-2071.
12. Ergashov, Y., Babayeva, M., & Akhmedov, A. (2023). New regenerator design for regeneration of raw cotton voles from non-ginned seeds. Academia Science Repository, 4(04), 32-35.
13. O'g'li, T. U. D. U., & Qizi, B. M. N. (2022). Verification of the values obtained based on the theoretical analysis of the working details of the crusher in the program “Solidworks”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(10), 222-229.
14. Zikirov, M. C., Qosimova, S. F., & Qosimov, L. M. (2021). Direction of modern design activities. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(2), 11-18.

**Research Science and  
Innovation House**